

TO‘LQIN HAYITNING "VAFO MALIKASI" ASARINING BADIY TAHLILI.

Ziyadullayeva Marjona

Termiz davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Xamrayeva Muhayyo.Termiz davlat universiteti

Adabiyotshunoslik kafedrası o'qituvchisi PHD

Annotasiya: *Ushbu maqola To‘lqin Hayitning "Vafo malikasi" asaridagi temuriy malika Uljoy turkonxonimning hayoti, suyuqli yor, mehribon ona, nafaqat oilada farzand tarbiyasi balki, davlat boshqaruvida ham o‘zining o‘rniga ega bo‘lganligini aks ettirilganing badiiy tahlilda yoritiladi hamda ushbu maqola orqali "Vafo malikasi" asarining syujeti, obrazlar tizimi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va adib uslubi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Uljoy turkon, portret, sujet, allegoriya, Sulton Baxtbegim, Amir Temur, "Muhabbatnoma", parallel, obraz.*

Uzoq o‘tmishga nazar tashlasak, sharq ayollarining davlat ma'naviyati, madaniyatining yuksalishida o‘ziga xos qo‘shgan hissasida, ularning jasurligi, dona va salohiyatligi, ayollik iffati va farzandlar tarbiyasidagi o‘rni haqida yetib kelgan tarixiy ma'lumotlarga guvoh bo‘lamiz. Shunday jasoratli ayollardan biri bo‘lgan temuriy malika O‘ljoy turkon haqida ham badiiy asarlar, tarixiy manbalar orqali iliq fikrlar yetib kelgan. Shunday ajoyib asarlardan biri taniqli yozuvchilardan ustoz To‘lqin Hayit qalamiga mansub " Vafo malikasi yoxud Amir Temur va O‘ljay oqa qismati" nomli asaridir. Ushbu asarda Amir Temurning O‘ljoy oqa bilan qanday tanishganligi ularning hayot yo‘llari, qismati badiiy talqin etilgan. Ustoz asardagi malikalar obrazini juda chiroyli tarzda portretlarini gavdalanitrgan. Adabiyotshunoslik lug‘atlarida "Portret (fransuzcha portraire –tasvirlamoq) – 1) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati

va harakatlari, qiliqlari) o'quvchi tasavvurida, jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biridir"¹. Badiiy asarlarda portretning keltirilishi juda muhim, negaki?

¹D.Quronov "Adabiyotshunoslik lug'ati" 226-bet –Toshkent; "Akademnashr"—2013.

Kitobxon obrazlarni yanayam jonli tasavvur qilishi, asar bilan birgalikda yashashi uchun zarurdir. Xuddi shunday ustozning asarida ham Amir Temur ilk marotaba O'ljoy turkonni ko'rgani holatidagi portreti, nafaqat uning tashqi ko'rinishini balkim tashqi qiyofa orqali ruhiy holatini, qahramonning ichki olamini ham yoritib beradi. O'ljoy turkon asl ismi Kamoloy "Yerga oy kabi to'lishib tushgan sanamning navkar kiyimi nozik qomatiga yarashib turar, yelkasiga tashlab olgan moviy sim to'r sovut uni yanada ko'rkam, jozibador ko'rsatmoqda edi" ². Asarda nafaqat malikaning husni balki Amir Temurning ham o'ziga xos savlati tasvirlanadi. " Kallasi katta, och-qizg'ish yuzida birorta ham dog'i yo'q, ko'zlari misli ikki sham, sochi, qoshlari qop-qora, oyoqlari ho'kizning oyog'idek, bellari bo'ri bellaridek, yag'rini kish(silovsin) yag'rinidek, ko'ksi ayiq ko'kragidek, xuddi afsonaviy pahlavonlarga o'xshaydi, lekin ulardan farqi shuki, adolatni nihoyatda yaxshi ko'radi, yetim-yesirga, muhtojlarga, bolalarga, olimu hunarmandlarga sayyidlaru din vakillariga juda mehribon; bog'-rog'lar yaratishga, koshonalar qurishga ishtiyoqmand, shu bois ham, u Xudoga yaqindir"³ deya tasvirlanishidan ham buyuk ajdodlarimiz qanday inson bo'lganligi yaqqol ko'z o'ngimizga keladi. Bunday tasvir vositalarining qo'llanilishi ijodkor mahoratidan darak beradi. Eng ahamiyatlisi shundaki, asarning boshlanishidan oxirigacha allegoriya badiiy asar voqeligiga bilan parallel holatda qo'llanilgan. "Allegoriya yunoncha allos boshqa o'zga va agoreuo gapiraman demakdir. Ya'ni allegoriya fikrni pardalab, sal yashirib ifoda qilishning eng o'ng'ay shakli hisoblanadi. Allegoriya (majoz) ko'chim turlaridan biridir"⁴. Ya'ni bir voqea hodisani boshqa bir predmet yoki hayvonotga ko'chirishdir, bu holat ko'pincha xalq og'izaki ijodida uchraydi. Masalan, ertak, matal, masal, maqol kabilarda. Bu asrda ham majoziy ma'noda qushlarning

obrazlari kiritilgan. Burgut, kalxat, bulbul, humo qushi-yu boshqa samo qushlarining hayoti xuddi Amir Temur hayotidagi yog'iyalar bilan kurashi singari, ular ham yovuzlik ramzi bo'lgan o'laksaxo'rlar, kalxatlar bilan kurashadi. Asrda bu voqeliklar yonma yon o'z davomiyligini olib boradi. Har qanday holatda ham O'ljoy oqa Amir Temur bilan birgalikda, hayotning barcha mashaqqatli, sinovli kunlarini yengib o'tadi. Asarda O'ljoy oqa nafaqat jasur, balki ilmi zakovatli ayol hamdir, buni

²To'lqin Hayit "Vafo malikasi" 20-bet –Toshkent; "O'zbekiston"–2018.

³To'lqin Hayit "Vafo malikasi" 6-bet –Toshkent; "O'zbekiston"–2018.

⁴L.Toshmuxammedova "Adabiyot tarixi va nazariyasi" 55-56-betlar –Toshkent; "Noshir"–2019.

Amir Temur bilan bo'lgan bir qancha suhbatlarida o'z isbotini topadi. Eng qiziqarli jihatlaridan biri, Amir Temur "Muhabbatnoma" asaridan parchalar aytganda, O'ljoy oqa baytlarni beixtiyor davom ettirib, samimiy suhbatlar bo'ladi. Asarda barcha qahramonlarning o'ziga xos xarakterlari mavjud. Bu esa o'z navbatida, asarning mazmunli va qiziqarli bo'lishiga o'z hissasini qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, To'lqin Hayitning Vafo malikasi asari insoniy munosabatlar, muhabbat va sadoqat kabi umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan muhim badiiy asarlardan biridir. Asar syujetining izchilligi, qahramonlarning chuqur xarakteri va badiiy tasvir vositalarining mahorat bilan qo'llanilishi uni o'zbek adabiyotidagi yirik asarlardan biriga aylantiradi. Muallif insoniy fazilatlarining qadrsizlanib borayotgan zamonda vafodorlik va muhabbatni yuksak qadriyat sifatida ilgari suradi. Asarda hayot haqiqatlari, inson ruhiyatining murakkab jihatlarini mahorat bilan aks ettirilgan. Natijada, Vafo malikasi asari nafaqat badiiy yuksaklik, balki axloqiy-ma'naviy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.D.Quronov "Adabiyotshunoslik lug'ati" –Toshkent; "Akademnashr"–2013.

2. To‘lqin Hayit "Vafo malikasi" –Toshkent; "O‘zbekiston"–2018.

3. L. Toshmuxammedova "Adabiyot tarixi va nazariyasi" –Toshkent; "Noshir"–2019.